<b>Normurodov Akmal Muhiddin o'g'li</b>	
O'zbekiston turizmining barqaror rivojlanishida shoping turizmining ahamiyati .....	1616
<b>Fayyoza Xalimova Nafasovana</b>	
Mintaqada turizm sohasini rivojlantirish istiqbollari.....	1619
<b>Isomiddinov Inomjon Qurvonali o'g'li</b>	
Iqtisodiy-matematik usullar asosida sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini oshirish yo'llari .....	1625
<b>Eshqo'ziyev Oxunjon Oybek o'g'li</b>	
Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1630
<b>Raxmonov Lochin To'xtamishovich</b>	
Tijorat banklari iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'zgarishini fond bozoridagi aksiyalar narxiga ta'siri tahlili .....	1636
<b>Yuldasheva Manzura Ollashkurovna</b>	



# TIJORAT BANKLARI IQTISODIY KO'RSATKICHLARINING O'ZGARISHINI FOND BOZORIDAGI AKSIYALAR NARXIGA TA'SIRI TAHLILI

**Yuldasheva Manzura Ollashkurovna**

Toshkent amaliy fanlar universiteti Iqtisodiyot fakulteti "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasи katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tijorat banklarini aksiyalari narxiga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Bundan tashqari, banklararo raqobat bozori orqali bank aksiyalari narxini barqarorligini ta'minlashda MIMD (management – indicators modern – information technologies - digital marketing strategy) modeli ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** banklararo raqobat, aktiv, majburiyat, kapital, ustav kapital, foizli daromad, foizli xarajat, sof foyda, MIMD modeli.

**Abstract:** This article analyzes the indicators affecting the share price of commercial banks. In addition, the MIMD (management - indicators modern - information technologies - digital marketing strategy) model has been developed to ensure the stability of the price of bank shares through the interbank competition market.

**Key words:** interbank competition, asset, liability, capital, authorized capital, interest income, interest expense, net profit, MIMD model.

**Аннотация:** В данной статье анализируются показатели, влияющие на цену акций коммерческих банков. Кроме того, для обеспечения стабильности цены акций банка на рынке межбанковской конкуренции разработана модель MIMD (менеджмент – показатели современные – информационные технологии – цифровая маркетинговая стратегия).

**Ключевые слова:** межбанковская конкуренция, актив, обязательство, капитал, уставный капитал, процентные доходы, процентные расходы, чистая прибыль, модель MIMD.

## KIRISH

Respublikamiz bank amaliyotida kiritilayotgan turli o'zgarishlar hamda islohotlar ularning jahon bank amaliyoti bilan yaqinlashish imkoniyatini oshirmoqda. Tijorat banklari faoliyatini jahon bank bozori bilan intregatsiya qilishda, birinchi navbatda, amalga oshirilishi lozim bo'ladigan masalalardan biri bu xususiyashtirish hisoblanadi. Hozirgi kunda respublikamizda faoliyat olib borayotgan 33 ta banklarning 12 tasida davlat banklari hisoblanadi<sup>1</sup>. ularning umumiy aktivlardagi ulushi 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 81,4%, majburiyatlardagi ulushi 81,5%, kreditlardagi ulushi 85,8% hamda depozitlardagi ulushi 66,7 foizni tashkil etgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra esa, umumiy aktivlardagi ulushi 78,2%, majburiyatlardagi ulushi 78,5%, kreditlardagi ulushi 83,2% hamda depozitlardagi ulushi 62,5 foizni tashkil etgan<sup>2</sup>.

Avval ham ko'p bora ta'kidlaganimizdek, "O'zbekistonda hatto nominal narxida bo'lgan bironta davlat banki mavjud emas. Sanoatqurilishbankning aksiyalari nominal qiymati 19 so'm bo'lgan holda, oxirgi savdolarda 2 barobar arzonroq, 10,37 so'mdan sotilgan. Aytish kerakki, davlat nazoratidagi banklar aksiyalari nominalidan ancha, hatto karrasiga arzon ekani holatni kuzatish mumkin. Jumladan, Mikrokreditbank aksiyalari nominali 1068 so'm, oxirgi kotirovka 700 so'm, Turonbank aksiyalari nominali 1700 so'm, oxirgi kotirovka 570 so'm, Qishloqqurilishbank aksiyalari nominali 119,25 so'm, oxirgi kotirovka 110 so'm, Aloqabank aksiyalari nominali 121 so'm, oxirgi kotirovka 77 so'm, Agrobank aksiyalari nominali 1 168 so'm, oxirgi kotirovka 588,01 so'm"<sup>3</sup>.

O'zbekistonni yangi taraqqiyot strategiyasida "Davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish" vazifasi belgilangan<sup>4</sup>.

1 <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/843918/>

2 Марказий банк маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

3 <https://xs.uz/uzkr/post/tizhorat-banklarining-samarali-investitsion-faoliyati-taraqqiyot-va-farovonlikning-muhim-omili>

4 2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси."Адолат" миллий хуқуқий ахборот маркази,-Т.:2022 й.-152 б.



Yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun “Banklarni transformatsiya qilish jarayonida mijozlarning talablarini ortib borishi muqarrar va bu borada ilg‘or innovatsion bank xizmatlarini sifatli ko‘rsatilmasligi natijasida bank mijozlarining o‘z bankiga bo‘lgan ishonchining kamayishiga olib kelishi mumkin. Natijada, bank mijozlari banklarni almashtirishga yoki boshqa bank xizmatlaridan foydalanishga xarakat qiladi. Shuning uchun banklar mijozlarining talablariga binoan faoliyatini transformatsiya qilishi, ya’ni bank mahsulotlari va xizmatlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi bank xizmatlarni yaratishni taqozo etadi” deb hisoblaydilar<sup>5</sup>.

Shunday qilib bank faoliyatini tartibga solish orqali, xususiy lashtirish amaliyotini tezlatish orqali davlat banklarini fond bozorida aksiyalar narxini barqarorlashtirish muhim sanaladi. Buning uchun birinchi navbatda banklar o‘z iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilashi, mijozlar ishonchini qozonishi, sifatli xizmat va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish amaliyotini ishlab chiqish zarur bo‘ladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ko‘plab olib borilgan tadqiqotlarda, bank aksiyalarini barqarorligini ta‘minlashda ishtiroy etuvchi ko‘rsatkichlarni samaradorligini oshirish orqali erishish lozimligini ta‘kidlab o‘tsalar, ayrim tadqiqotchilar “aksiyalarning narxini barqarorligini ta‘minlashda banklar barqaror bo‘lsagina maqsadga erishish mumkin deb hisoblaydilar<sup>6</sup>.

Bank aksiyalari narxini o‘zgarishini boshqa tadqiqotchilar “mamlakat iqtisodiyotiga eng ko‘p ulush qo‘shayotgan resurslarni narxini o‘zgarishi bilan bog‘lash zarur deb hisoblaydilar<sup>7</sup>. Amerikalik olim A. Robert olib borgan tadqiqotlarida “aksiyalarni narxini o‘zgarishini moliyaviy institutlarning portfelidagi o‘zgarishlar bilan solishtirishni maqsadga muvofiq, deb tahlil olib borgan”<sup>8</sup>.

Kalomiris va Xaberning tadqiqoti “bankirlar va siyosatchilar o‘rtasida uzoq vaqt dan beri mavjud bo‘lgan kvid pro-kvoga oydinlik kiritgan bo‘lib, qo‘shilish huquqi evaziga banklar kreditga loyiq bo‘lmagan qarz oluvchilarga kredit berish orqali o‘zlarining mahalliy hamjamiatlariga yetarlicha sodiq ekanliklarini ko‘rsatishlari kerak. Aks holda banklarning aksiyalari fond bozorida keskin o‘zgarishlarni boshdan o‘tkazadi, bu esa ularning inqirozga yuz tutishiga olib keladi deb ta‘kidlaganlar<sup>9</sup>. Ushbu tadqiqotda “biznes tashkilotlarida tashkiliy o‘zgarishlarni rejalashtirish va amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lib, har qanday banklardagi o‘zgarish ularning fond bozoridagi aksiyalar narxini o‘zgarishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir etishini asoslab bergen”<sup>10</sup>.

Banklarning fond bozoridagi aksiyalar narxi har qanday bank uchun ma’lum bir maromda ketishi ularning barqarorligini ta‘minlashga imkon beradi. “Ammo banklar o‘zlarining bozor-leveraji nisbati uchun maqsadli ishlayotganga o‘xshaydi. Ushbu maqsadga moslashish sekin amalga oshib borayotgan sharoitda aksiyalarning daromadlarini keskin kamayib ketishi orqali kuchli kutilmagan salbiy zarbaga uchrashishi mumkin deb izohlaydilar”. Amerikalik olim Enn Boden olib borgan tadqiqotlarida “bank sohasini har qanday bozorda faoliyatini eng cho‘qqiga chiqarishni yangi bank texnologiyalar bilan bog‘lash zarurligini asoslab bergen. Olimning fikricha, har qanday raqamlashtirilgan bank aksiyalari barqarorligini yo‘qotmaydi, aksincha, o‘ziga ko‘proq mijozlar jalb qiladi deb ta‘kidlaydi”<sup>11</sup>.

Tijorat banklari raqobat bozorida ularga turli moliyaviy institutlar ham raqobatchi tashkilot sifatida banklar bozoriga ishtiroy etadilar. Ular bir tomonidan banklar faoliyatiga keskin ta’sir ko‘rsatsa, ikkinchi tomonidan banklarni raqobat bozorida o‘z mavqeini ushlab turish uchun yangi innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqishga majbur qiladi. Ayrim tadqiqotchilar ushbu “bog‘liqlik banklar aksiyalariga ijobji ta’sir ko‘rsatishini asoslab bergenlar. Ularning fikricha banklar raqobatichi moliyaviy institutlar aksiyalar narxini o‘zgarishiga moliyaviy vositachilik rolini bajaradi deb hisoblaydilar<sup>12</sup>.

Kevin Devis tadqiqotlarida banklarning konsentratsiyasi banklar bozoridagi holatni tubdan o‘zgartirishga hamda ularning fond bozoridagi aksiyalari narxiga keskin ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilib bergen. Tadqiqotchi

5 <https://e-journal.uz/2020/10/23/> (Рахматов Т. Банкларнинг трансформация жараёнини фаоллаштиришда банк хизматлари масалалари)

6 Asad Rauf. Banking stability and the price of credit obligations/March 2023 Journal of Financial Intermediation 54(5): 101027 DOI:10.1016/j.jfi.2023.101027 License CC BY 4.0

7 C.T. ALBULESCU. Bank financial stability, bank valuation and international oil prices: Evidence from listed Russian public banks/ <https://arxiv.org/ftp/arxiv/papers/2004/2004.12791.pdf>

8 Robert A. Weigand. Applied Equity Analysis and Portfolio Management: Tools for Analysis and Portfolio Management/336 pages 2014 19.34 MB

9 V. Kalomiris, Steven H. Haber. Fragile by Design: The Political Origins of Banking Crises and Deficit Credit (The Princeton Economic History of the Western World, 50)/Illustrated, February 23, 2014.

10 [https://www.researchgate.net/publication/325060756\\_Managing\\_Change\\_in\\_Banking\\_Organizations\\_The\\_Case\\_of\\_a\\_UK\\_Commercial\\_Bank](https://www.researchgate.net/publication/325060756_Managing_Change_in_Banking_Organizations_The_Case_of_a_UK_Commercial_Bank)

11 Ann Boden. Banking: How I Ruined an Industry./Penguin Business (November 5, 2020). English. Binding: 288 pages. ISBN-10: 0241453585 ISBN-13: 978-0241453582

12 Nicola Cetorelli, Benjamin H. Mandel, and Lindsay Mollineaux. The Evolution of Banks and Financial Intermediation: Framing the Analysis/ <https://www.newyorkfed.org/medialibrary/media/research/epr/12v18n2/1207cet1.pdf>



fikricha “har qanday davlatdagi banklar faoliyati bilan bog’liq bo’lgan konsentratsiya jarayoni ko’proq xorijiy va o’rta darajadagi mahalliy raqobatchilar konsentratsiyaning raqobatga ta’siri haqidagi xavotirlarni kamaytirishi mumkin, ammo ehtiyotkor siyosat va moliyaviy barqarorlik uchun muhim muammolarni ko’tarishi mumkin”<sup>13</sup>.

O’rganilgan tadqiqotlarning ayrim holatlarda banklarning aksiyalari narxini o’zgarishini aniq ko’rsatkichlar asosida baholash taklif etilgan. Jumladan, Deniyel Brobi tomonidan olib borilgan tadqiqotda “asosiy ko’rsatkichlar sifatida rentabelligi, sof foiz marjasи va likvidlilik koeffitsiyentlarini ko’rsatib o’tgan. Tadqiqotchi tomonidan bozor ishtirokchilariga to’rtta mumkin bo’lgan strategiya taqdim etgan: (1) mijozlarni ushlab turish, (2) mijozlarni jalb qilish, (3) xizmat sifatida bank va (4) ijtimoiy media to’lov platformalari.”<sup>14</sup>.

Bundan tashqari, Bekkali va boshqalar DEA va SFA usullaridan foydalangan holda Yevropaning beshta davlatida qimmatli qog’ozlar daromadlari va xarajatlar ko’rsatkichlari o’tasidagi bog’liqlikni o’rganib chiqqan. Ular “Yevropa banklarida rentabellik va fond daromadlari o’tasida ijobiy bog’liqlik bor degan xulosaga kelishgan va bu bog’liqlik faqat DEA usulidan foydalanganda ahamiyatli bo’ladi degan xulosaga kelishgan”<sup>15</sup>.

Ayrim olib borilgan tadqiqotlarda Xitoylik olimlar Chan 1990 yildan 2014 yilgacha Osiyoning beshta davlatida texnik samaradorlik va bank aksiyalari daromadlari o’tasidagi bog’liqlikni o’rganib chiqqan. U “bank faoliyati va aksiya daromadlarining o’zgarishi o’tasida uzoq muddatli ikki tomonlama bog’liqlik mavjudligini aniqlagan, bu bankning uzoq muddatli faoliyati uchun yaxshi ko’rsatkich ekanligini anglatadi”<sup>16</sup>.

Yuqorida o’rganilgan nazariy qarashlarda olimlar asosiy e’tiborni bank ko’rsatkichlari hamda ularning aksiya narxlariga ta’sirini o’rganishga e’tibor qaratganlar. Olingan nazariy qarashlar asosida bank aksiyalar narxini barqarorligini ta’minalashda uchta yo’nalish, banklarning eng muhim ko’rsatkichlari asosida, makroiqtisodiy ko’rsatkichlar hamda ijtimoiy-siyosiy holatlardan kelib chiqqan holda baholash zarurligini belgilab berганlar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Banklararo raqobat bozori orqali bank aksiyalari narxini barqarorlashtirish ulraning boshqaruv strategiyasi, ko’rsatkichlari, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo’llash hamda raqamli marketing strategiyasini to’g’ri tashkil etish orqali amalga oshirish mumkin.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda faoliyat olib borayotgan davlat banklarining aksiyalar narxiga ta’sir qiluvchi eng muhim ko’rsatkichlaridan foydalangan holda o’zaro tahlilini ko’rib chiqamiz. Tadqiqotimiz obyektlari sifatida O’zsanoatqurilish banki, Mikrokredit bank, Qishloq qurilish bank, Ipoteka bank hamda Xalq banklarini olamiz. Tahlil qilish uchun olinadigan eng muhim ko’rsatkichlari sifatida, aktivlar, majburiyatlar, kapitali, ustav kapitali, foizlari daromad, foizli xarajat, sof foydasi va boshqa ko’rsatkichlaridan foydalangan holda tahlil o’tkazamiz.

Banklar faoliyati ko’rsatkichlari orqali bank aksiyalarini fond bozorida barqarorligini ta’minlovchi eng muhim ko’rsatkichi bu ularning sof foydasi hisoblanadi. Tijorat banklarining yil oxirida oladigan sof foydasini ko’payishi uning yil davomida belgilangan rejalarini bajarilgani yoki amalga oshganini bildiradi. 2022 yilda banklarning sof foydasi bo’yicha tahlili o’rganilganda quyidagi holatlar kuzatildi. Operativ ma’lumotlarga ko’ra 2022 yil yakuniga ko’ra, O’zbekistonda faoliyat yuritayotgan 31 ta bankning jami sof foydasi 9 trln. 993,4 mlrd. so’mni tashkil qilgan. Uchta bank — TBC Bank (-116,1 mlrd. so’m), O’zagroeksportbank (-18,5 mlrd. so’m) va Ravnaq bank (-8,5 mlrd. so’m) yilni moliyaviy zarar bilan yakunlagan. (Faoliyati zarar bilan yakunlangan banklarni hisobga olmaganda, qolgan banklarning jami sof foydasi 10 trln. 136 mlrd. so’mdan ortiq bo’lgan.)

Sof foyda ko’rsatkichi bo’yicha yetakchi 10 ta bankning 5 tasi (O’zmilliybank, Ipoteka bank, Agrobank, O’zsanoatqurilishbank va Qishloq qurilish bank) davlat ulushi ustuvor bo’lgan banklar, qolgan 5 tasi esa (Kapitalbank, Hamkorbank, Trastbank, Ipak Yo’li banki va Oriyent Finans bank) xususiy va boshqa banklardir.

Sof foyda ko’rsatkichi bo’yicha eng katta ko’rsatkich O’zmilliybankda qayd etilgan bo’lib, bank sof foydasi 2021-yilga nisbatan 1 trln. 426 mlrd. so’mga oshgan va 2022-yil yakuniga ko’ra 2 trln. 409,6 mlrd. so’mni tashkil qilgan. Xususiylashtirilishi aniq bo’lgan Ipoteka bank yilni 1 trln. 156,5 mlrd. so’m sof foyda bilan yakunlagan. 1 trln.lik “marra”dan o’tgan uchinchi bank - sof foydasini 2021-yilga nisbatan 3 barobarga oshirgan Kapital bank

13 Kevin Davis. Banking Concentration, Financial Stability and Public Policy /<https://www.rba.gov.au/publications/confs/2007/pdf/davis.pdf>

14 <https://jfin-swufe.springeropen.com/articles/10.1186/s40854-021-00264-y>

15 Beccalli, E., Casu, B., & Girardone, K. (2006). Efficiency and stock performance in European banking. Journal of Business Finance and Accounting, 33(1–2), 245–262. <https://doi.org/10.1111/j.1468-5957.2006.01362.x> [Cross-reference], [Web of Science®], [Google Scholar]

16 Chan, S.-G. (2016). Technical performance and stock performance of registered commercial banks in ASEAN-5. In K. Munir and S. Ching Kok (Eds.), Information Efficiency and Anomalies in Asian Stock Markets (pp. 210–227). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315638195> . [Google Scholar]



bo'lib, bank yil davomida 1 trln. 79,9 mlrd. so'm sof foyda olgan. 2021-yil yakuni bo'yicha qariyb 1 trln. sof foyda olgan O'zsanoatqurilishbank 2022-yil 400 mlrd. kam sof foyda bilan 7-o'ringa "tushgan".

**1-jadval:** Tijorat banklarini sof foydasi bo'yicha ko'rsatkichlari (mlrd. so'm)<sup>17</sup>

№	Banklar	Yillar						
		2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1	O'zsanoatqurilish banki	86,7	899,3	219,4	604,5	806,9	998,2	588,9
2	Mikrokredit bank	20,6	63,8	14,9	16,4	27,3	5,1	21,3
3	Qishloq qurilish bank	24,5	13,1	85,4	141,2	81,8	319,4	437,5
4	Ipoteka bank	72,1	280,9	177,7	339,0	405,2	886,8	1156,5
5	Xalq banki	151,8	130,7	333,8	104,8	505,1	-2187,0	7,9

Sof foydasini sezilarli darajada oshirgan Universalbank (137,5 mlrd. so'm), KDB bank (212,3 mlrd. so'm), Aziya Alyans bank (202,1 mlrd. so'm)ni, shuningdek ochilganiga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, moliyaviy barqarorlikka erishgan ANORBANK (40,7 mlrd. so'm) va Uzumbank (41,1 mlrd. so'mni) alohida qayd etish mumkin. 2021 yilni zarar bilan yakunlagan AT "Xalq banki" o'tgan yilni sof foyda bilan yakunlashga erishgan (7,9 mlrd. so'm). O'zagroeksportbank va TBC Bank 2021-yilni ham 2022-yilni ham zarar bilan yakunlagan. 2021-yil foyda bilan ishlagan Ravnaqbank 2022-yilni -8,5 mlrd. zarar bilan yakunlagan.

Tijorat banklarining keyingi eng muhim aksiyalariga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichi bu albatta ularning aktivlari hisoblanadi. O'rganilayotgan banklarimizning ushubu ko'rsatkich bo'yicha holati quyidagicha bo'lgan.

**2-jadval:** Tijorat banklarining aktivlari bo'yicha ko'rsatkichlari (mlrd. so'm)<sup>18</sup>

№	Banklar	Yillar						
		2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1	O'zsanoatqurilish banki	10309,0	24306,5	31026,1	35846,1	50692,1	55731,9	56391,9
2	Mikrokredit bank	1339,6	1807,2	2942,9	5571,5	9878,9	12802,3	16782,5
3	Qishloq qurilish bank	5295,2	6428,1	9272,5	12368,6	15582,2	19944,8	24822,3
4	Ipoteka bank	5747,8	13583,6	19831,3	23844,9	32604,1	40164,3	49830,0
5	Xalq banki	4308,9	5535,3	9302,4	17334,2	24085,5	28635,6	26921,0

Aktivlar bo'yicha tahlil qilinayotgan barcha banklarda ijobiy holat kuzatilgan. Faqat Xalq bankida 2021-yilga nisbatan 2022-yilda pasayish holati kuzatilgan.


Respublikamizda faoliyat olib borayotgandavlat banklarini aktivlar bo'yicha ulushini 2021 yil va 2022-yil bilan solishtirganda quyidagi holat kuzatildi.

Bunda eng katta ulush O'zmilliy bank ulushiga to'g'ri kelgan bo'lib, davlat banklarini aktivlari bo'yicha 2021-yilda 24,81 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2002-yilda 27,56 foizni tashkil etgan. Keyingi yuqori ulush bu O'zsanoatqurilish banki hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, 2021-yilda 15,59 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda 14,77 foizga ega bo'lgan. Uchinchi eng yirik ulushga ega bo'lgan banklar qatoriga Agrobank ham kirgan bo'lib, bankning ulushi 2021-yilga nisbatan 2022-yilga 1,17 foizga oshgan. Ushbu holat aktivlar bozorida davlat banklari monopol holatga ega ekanligidan dalolat beradi. Tahlil qilayotgan banklarimizdan eng past ko'rsatkich Mikrokredit bank hissasiga to'g'ri kelgan, bunda bankning ulushi 2021-yilda 3,72 foiz bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda 3,86 foizga o'zgargan.

"Rivojlangan mamlakatlar tajribasini ko'rsatishicha, bank aktivlarini boshqarish, aktivlarning samaradorlik darajasini saqlab turish, aktiv operatsiyalar hajmini oshirib borish banklarni rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Bunday vaziyatda bank aktivlarini to'g'ri boshqarish orqali bankning resurslar bazasini mustahkamlash, aktiv amaliyotlarni ko'paytirish asosida bank daromadini oshirish talab qilinadi. Bundan tashqari, moliya bozorida banklarning raqobatbardoshligini mustahkamlash, mijozlar, aksiyadorlar va omonatchilar manfaatlari to'liq kafolatlay oladigan bank mexanizmini shakllantirish ko'p jihatdan banklarda aktivlardan samarali foydalanish, xarajatlar samaradorligini oshirish kabi bir qator ichki imkoniyatlardan keng foydalanishni talab etadi.

17 Myallif tomонидан тижорат банклари маълумотлари асосида тайёрланган.

18 Myallif томонидан тижорат банклари маълумотлари асосида тайёрланган.

1-rasm: Davlat banklarini aktivlar bo'yicha ulushi<sup>19</sup>

Aktivlarni boshqarishda asosiy e'tibor tavakkalchilikning eng past darajasi sharoitida daromadlar va xaratlar orasidagi ijobiy farqni mumkin qadar oshirish yoki uni juda bo'lmaganda barqaror darajada saqlab turishga qaratilishi zarur<sup>20</sup>.

3-jadval: Tijorat banklarining majburiyatları bo'yicha ko'rsatkichlari (mlrd. so'm)<sup>21</sup>


№	Banklar	Yillar						
		2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1	O'zsanoatqurilish banki	9455,3	21843,2	27822,6	29525,5	43736,1	48787,1	49250,4
2	Mikrokredit bank	1145,7	1204,8	2246,8	3911,5	8191,6	10510,6	13138,5
3	Qishloq qurilish bank	4861,6	5347,2	8156,3	11137,9	13489,5	17838,6	18011,6
4	Ipoteka bank	5333,7	12019,6	18218,2	20236,8	28563,7	35237,3	43250,0
5	Xalq banki	4380,9	4183,9	7499,3	12973,4	18816,5	23425,6	21073,0

Majburiyatlar bo'yicha barcha banklarda oldingi yillarga nisbatan o'sish bo'lgan. Faqtgina Xalq bankida 2021-yilga nisbatan 2022-yilga pasayish kuzatilgan. 2016-yilga nisbatan o'zgarishini tahlil qiladigan bo'lsak, barcha banklarda juda katta o'sish holatini ko'rish mumkin. Davlat banklarini majburiyatları bo'yicha o'zaro ulushini ikki yil uchun taqqoslaganda quyidagi holat yuzaga kelgan.

19 <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/843918/> сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

20 <https://www.myunivercity.ru/%D0.html>

21 Муаллиф томонидан тижорат банклари маълумотлари асосида тайёрланган.

2-rasm: Davlat banklarini majburiyatlar bo'yicha ulushi<sup>22</sup>

Majburiyatlar bo'yicha ham asosan uchta o'rinn O'zmilliybank, O'zsanoatqurilishbank hamda Agrobank hissasiga to'g'ri kelgan. Ularning mos ravishda ulushlari 2021-yilga nisbatan, 2022-yilda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Jumladan, O'zmilliybank ulushi 2021-yilda 24,6 foiz bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda 27,7 foizga teng bo'lgan. Tahlil qilayotgan banklarimiz orasida O'zsanoatqurilish banki ulushi yuqori ko'rsatkichga teng bo'lib, 2021-yilda 15,1 foizga teng bo'lib, 2022-yilda 16 foizga teng bo'lgan. Ipoteka bank ulushi 2021-yilga nisbatan 2022-yilda 1,2 foizga pasaygan bo'lsa, Xalq bankiniki deyarli o'zgarmagan 7 foiz atrofida bo'lgan. Mikrokredit bank ulushi 2021-yilga nisbatan 2022-yilda 1,1 foizga pasaygan.

4-jadval: Respublikamiz umumiylar aktivlari va majburiyatlarida tahlil etilayotgan banklarning ulushi<sup>23</sup>

№	Banklar	Aktivlar bo'yicha (%)		Majburiyatlar bo'yicha	
		2021	2022	2021	2022
1	O'zsanoatqurilish banki	12,70	11,5	10,97	11,83
2	Mikrokredit bank	3,03	3,0	2,51	2,75
3	Qishloq qurilish bank	4,65	4,5	4,05	4,58
4	Ipoteka bank	8,99	7,9	7,85	8,02
5	Xalq banki	6,05	5,7	4,82	5,52

Respublikamiz umumiylar aktivlarda tahlil qilayotgan banklarimiz orasida O'zsanoatqurilish bankining ulushi qolgan banklarga nisbatan yuqori ekanligini ko'rish mumkin. O'zsanoatqurilish bankining ulushi 2021-yilga nisbatan 2022-yilda pasaygan bo'lsada, ammo respublika banklari ichida ulushi bo'yicha ikkinchi o'rinni saqlab qolgan. Majburiyatlar bo'yicha ham bankning ulushi oshgan bo'lib, 2021-yilga nisbatan 2022-yil yakuniga ko'ra 0,86 foizga oshgan. Tahlil qilayotgan banklarimiz orasida eng kam ulushga har ikki ko'rsatkich bo'yicha Mikrokreditbankining ulushi kamligini ko'rish mumkin.

Keyingi ko'rsatkichlar bank aksiyalari narxini o'zgarishiga yuqori ta'sir qiluvchi bu kredit va depozitlar bo'yicha holatini ko'rib chiqamiz. Bizga ma'lumki tijorat banklarining asosiy daromad manbai bu ularning kredit-

22 <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/843918/> сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

23 <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/843918/> сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.



lari hisoblanadi. Tijorat banklarida kredit siyosati to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ularning fond birjasidagi aksiyalari narxini barqarorligi saqlanib turiladi. Shuning uchun banklar tomonidan kredit bo'yicha taqdim etilayotgan xizmatlar raqobatchilariga nisbatan har taraflama ustun bo'lishi zarur hisoblanadi.

**5-jadval:** Tijorat banklarining kreditlari bo'yicha ko'rsatkichlari (mlrd. so'm)<sup>24</sup>

№	Banklar	Yillar						
		2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1	O'zsanoatqurilish banki	8568,5	20360,6	28020,6	30039,8	39954,0	42537,1	51689,0
2	Mikrokredit bank	1004,8	1197,7	2393,6	4486,3	8143,8	10334,2	13337,0
3	Qishloq qurilish bank	4631,8	5635,7	8410,8	11292,5	13452,9	16885,1	20292,0
4	Ipoteka bank	4637,3	10583,2	17598,2	19839,7	24345,2	29263,2	32658,0
5	Xalq banki	2352,3	3440,0	4691,1	12407,2	18242,1	18792,0	19596,0

Tijorat banklarini kreditlar bo'yicha ko'rsatkichlari barcha banklarda ijobiyl o'zgarishlarni ko'rish mumkin. 2016-yilga nisbatan 2022-yilga nisbatan olib qaralganda O'zsanoatqurilishbanki 43120,5 mlrd. so'mga, Mikrokredit bank 12332,2 mlrd. so'mga, Qishloq qurilish bank 15660,2 mlrd. so'mga, Ipoteka bank 28020,7 mlrd. so'mga hamda Xalq banki 17243,7 mlrd. so'mga oshganini kuzatish mumkin. Ushbu holat banklar uchun ijobiyl holat deb baholash mumkin. Ammo shuning bilan birga banklarda muammoli kreditlar ulushini ham nazorat qilib turish zarur bo'ladi. 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra banklardagi muammoli kreditlar ulushi O'zsanoatqurilish bankida 2,8%, Mikrokredit bank 4,8%, Qishloq qurilish bank 3,9%, Ipoteka bank 2,5% hamda Xalq banki 11,9% tashkil etgan. Bu ko'rsatkich bo'yicha eng yomon holat Xalq bankida kuzatilgan. Belgilangan me'yordan (5%) oshib ketgan. Ushbu holat bankning aksiyalari narxiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qilishi mumkin.

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, "2023-yilning yanvar oyida bank tizimi kredit portfeli o'tgan yil yanvar oyidan farqli ravishda 1 trln 60 mlrd so'mlik o'sishni qayd etgan. Davlat banklarining jami kredit portfeli 561 mlrd so'mga kamaygan bo'lsa-da, boshqa banklarda kredit portfeli 1,6 trln so'mga o'sgan. Banklar kesimida kredit qoldig'i O'zsanoatqurilishbank (884 mlrd so'm), Agrobank (887 mlrd so'm), Kapital bank (776 mlrd so'm), Orient Finans bank (247 mlrd so'm), Infinbank (211 mlrd so'm), Ipak Yo'li banki (198 mlrd) so'm hamda Davr bank (138 mlrd so'm) nisbatan jadal o'sgan. O'zmilliyybank (-2 trln so'm), Ipoteka bank (-142 mlrd so'm), Tenge bank (-186 mlrd so'm)larda kredit portfeli nisbatan sezilarli miqdorda kamayagan.

Kredit portfeli tarkibidagi muammoli kreditlar (NPL) ulushi yanvar oyi davomida 0,23 foizga o'sgan. Davlat banklarida ushbu ko'rsatkich 0,29 foiz o'sgan bo'lsa, boshqa banklarda muammoli kreditlar ulushi 0,03 foizga kamayishni qayd etgan.

Xalq bankidan boshqa deyarli barcha yirik davlat banklarida muammoli kreditlar miqdori ortgan. Mqdor jihatdan muammoli kreditlarning (boshqa banklardan ko'ra) sezilarli o'sishi O'zsanoatqurilishbank (+347 mlrd so'm), Ipoteka bank (+213 mlrd so'm) hamda Qishloq qurilish bankda (+109 mlrd so'm) kuzatilgan. Boshqa (davlat ulushi mavjud bo'lmagan) banklarda faqat Trastbankda (+76 mlrd so'm) muammoli kreditlar miqdori sezilarli o'sgan".

Olingen tahlillardan shuni ko'rish mumkinki tijorat banklari raqobat orqali bank aksiyalari narxiga ta'sir doirasini o'rganishda birinchi navbatda ularning eng muhim ko'rsatkichlarini belgilangan me'yordan kam bo'lmasligini ta'minlashni taqoza etadi. Undan keyin tijorat banklarining raqobat bozorida olib borayotgan siyosati bankning raqobatchilari siyosati bilan o'zaro uyg'unlikda ishlab chiqilishi zarur bo'ladi. Yana bir muhim tomoni bank aksiyadorlari tomonidan bildirilayotgan takliflar bank tomonidan raqobat bozoridagi holatlardan kelib chiqib qabul qilish mexanizmini yaratishni taqoza etadi. Banklarning raqobat bozoridagi umumiyl xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning aksiyalari narxiga ta'sir qiluvchi omillar ketma-ketligini quyidagicha belgilab maqsad muvofiq deb hisoblaymiz.


- birinchidan, banklararo raqobat bozoridagi holat har bir bank uchun shaffof bo'lishi zarur;
- ikkinchidan, banklararo raqobat bozorida banklardan tashqari boshqa moliyaviy institularning ishtirokini hisobga olishi hamda uning bank aksiyalariga ta'sir qilish chegaralarini aniqlab borish maqsadga muvofiq hisoblanadi;
- uchinchidan, banklar doimiy ravishda fond bozorida o'z aksiyalar narxini keskin o'zgarish holatlarini monitoring qilib borishi zarur;
- to'rtinchidan, banklar tomonidan raqobat bozorida taklif etilayotgan har qanday yangi bank texnologiyalarini, bank xizmatlari va servisini aksiyalar narxiga ta'sir qilish prognozini oldindan belgilab olishi muhim hisoblanadi;

24 Muallif tomonidan tijorat banklari maъlumotlari asosida tajёрланган.



- beshinchidan, bank ko'rsatkichlariiga ta'sir qiluvchi risk komponentlarini chuqur tahlil qilgan holda, kutilishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni oldini olish bo'yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqishi va doimiy risklarni monitoringini olib borishi zarur;
- oltinchan, bank aksiyalari narxini fond bozorida o'zgarishini texnik va fundamental tahlilini olib borishi maqsad muvofiq hisoblanadi.

Banklararo raqobat orqali bank aksiyalari narxlariga ta'sir qiluvchi omillarni ta'sir qilish modelini quyidagicha bo'lishini taklif qilamiz. Bu modelning shakllanishiga obyektiv va subyektiv omillar ta'sir ko'rsatadi. Ular orasida, birinchi navbatda, ustav kapitalining yuqori darajada konsentratsiyasi, korporativ qarorlarni qabul qilishda banklarning ustuvor ahamiyati va aksiyalar paketining xususiy sarmoyadorlar o'ttasida tarqalishi kabilar qayd etiladi.



**4-rasm:** Banklaaro raqobat bozori orqali bank aksiyalari narxini barqarorligini ta'minlash modeli<sup>25</sup>

Taklif etilayotgan ushbu model MIMD (management – indicators modern - information technologies - digital marketing strategy) deb nomlanadi. Bunda birinchi o'rinda boshqaruv strategiyasini kiritilishi banklarning raqobat bozorida ustunligini ta'minlashda boshqaruv mahorati juda katta rol o'ynaydi. Shuning uchun banklar tomonidan boshqaruv strategiyasini to'g'ri tashkil etilishi, uning raqobat bozorida ustunligini ta'minlash bilan birga fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

Keyingi bosqich bu tijorat banklarini ko'rsatkichlari hisoblanib, ko'rsatkichlar belgilangan me'yorlarlardan pasayib ketsa, bank faoliyatini izdan chiqarishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bank ko'rsatkichlarini domiy monitoringi uning raqobat bozorida o'z o'mini topishiga hamda aksiyalar narxini keskin o'zgarishiga ta'sir ko'rsat maydi. Keyingisi bu zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hisoblanadi. Bunda banklar e'tibor berishi zarur bo'ladigan yo'nalishlar sifatida quyidagi keltirib o'tish mumkin:

- masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan kontaktsiz to'lovlar soni va qamrovini kengaytirish;
- avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash va kredit konveyeridan keng foydalanish;
- bank ma'lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish;
- bank sohasidagi yangi konsepsiya va texnologiyalarni joriy qilish (fintex, marketpleys, raqamli bank).

Oxirgi yo'nalish bu keyingi paytlarda jahon bank amaliyotida keng joriy etilayotgan raqamli bank marketing strategiyasi hisoblanadi. Bunda, bankning umumiy raqamli marketing strategiyasi kattaroq maqsadga bog'langan bo'lishi kerak. Bunday maqsadlarga - "bankni targ'ib qilish" yoki "auditoriyani kengaytirish" dan ko'ra aniqroq va ilhomlantiruvchi narsani amalga oshirish lozim. Marketing maqsadlarini belgilashning eng yaxshi usullaridan biri bu SMART metodologiyasidan foydalanishdir. Ushbu qisqartma maqsad quyidagi bo'lishi kerakligini anglatadi:

- Specific — o'ziga xos yo'lni tanlash;
- Measurable — bozor o'choviga e'tibor berish;
- Attainable — maqsadga erishishni eng optimal yo'lini qidirish;

25 Myallif tomonindan taklif etilaётган модель.



- Relevant — doimiy ravishda xizmat va mahsulotni raqobatchilarniki bilan solishtirish;
- Time-bound — har qanday mahsulot amal qilishi vaqt bilan chegaralanganligini e'tiborga olish.

Har bir harf bilan ishlash orqali bankning to'g'ri yo'nalishda harakat qilishiga yordam beradigan maqsadlarni belgilash mumkin. MIMD modelini to'g'ri tashkil etish har qanday bank aksiyalari narxini fond bozorida barqarorligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olingen tahlillar asosida tijorat banklari o'rtaqidagi raqobatdan foydalangan holda bank aksiyalarini narxini barqarorlashtirishning eng muhim xususiyatlarini ochib berish maqsadida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1. Olingen nazariy qarashlar asosida bank aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlashda uchta yo'nalish, banklarning eng muhim ko'satkichlari asosida, makroiqtisodiy ko'satkichlar hamda ijtimoiy-siyosiy holatlardan kelib chiqqan holda baholash zarur.
2. Banklarning raqobatbardoshligini mustahkamlash, mijozlar, aksiyadorlar va omonatchilar manfaatlarini to'liq kafolatlay oladigan bank mexanizmini shakllantirish ko'p jihatdan banklarda aktivlardan samarali foydalanish, xarajatlar samaradorligini oshirish kabi bir qator ichki imkoniyatlardan keng foydalanish maqsad muvofiq.
3. Banklarning raqobat bozoridagi umumi xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning aksiyalari narxiga ta'sir qiluvchi omillar ketma-ketligini quyidagicha belgilab maqsad muvofiq deb hisoblaymiz:
  - birinchidan, banklararo raqobat bozoridagi holat har bir bank uchun shaffof bo'lishi zarur;
  - ikkinchidan, banklararo raqobat bozorida banklardan tashqari boshqa moliyaviy institutlarning ishtiroyini hisobga olishi hamda uning bank aksiyalariga ta'sir qilish chegaralarini aniqlab borish maqsadga muvofiq hisoblanadi;
  - uchinchidan, banklar doimiy ravishda fond bozorida o'z aksiyalar narxini keskin o'zgarish holatlarini monitoring qilib borishi zarur;
  - to'rtinchidan, banklar tomonidan raqobat bozorida taklif etilayotgan har qanday yangi bank texnologiyalarini, bank xizmatlari va servisini aksiyalar narxiga ta'sir qilish prognozini oldindan belgilab olishi muhim hisoblanadi;
  - beshinchidan, bank ko'satkichlariiga ta'sir qiluvchi risk komponentlarini chuqur tahlil qilgan holda, kutilishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni oldini olish bo'yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqishi va doimiy risklarni monitoringini olib borishi zarur;
  - oltinchidan, bank aksiyalari narxini fond bozorida o'zgarishini texnik va fundamental tahlilini olib borishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.
4. Banklararo raqobat bozori orqali bank aksiyalari narxini barqarorligini ta'minlashda MIMD (management – indicators modern - information technologies – digital marketing strategy) modeli ishlab chiqildi. MIMD modelini to'g'ri tashkil etish har qanday bank aksiyalari narxini fond bozorida barqarorligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi."Adolat" milliy huquqiy axborot markazi,-T.:2022 y.-152 b.
2. Ann Boden. Banking: How I Ruined an Industry./Penguin Business (November 5, 2020). English. Binding†: 288 pages. ISBN-10†: 0241453585ISBN-13†: 978-0241453582
3. Asad Rauf. Banking stability and the price of credit obligations/March 2023 Journal of Financial Intermediation 54(5): 101027 DOI:10.1016/j.jfi.2023.101027 License CC BY 4.0
4. Beccalli, E., Casu, B., & Giradone, K. (2006). Efficiency and stock performance in European banking. Journal of Business Finance and Accounting, 33(1–2), 245–262. <https://doi.org/10.1111/j.1468-5957.2006.01362.x> [Cross-reference], [Web of Science®], [Google Scholar]
5. C.T. ALBULESCU. Bank financial stability, bank valuation and international oil prices: Evidence from listed Russian public banks/<https://arxiv.org/ftp/arxiv/papers/2004/2004.12791.pdf>
6. Chan, S.-G. (2016). Technical performance and stock performance of registered commercial banks in ASEAN-5. In K. Munir and S. Ching Kok (Eds.), Information Efficiency and Anomalies in Asian Stock Markets (pp. 210–227). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315638195> . [Google Scholar]
7. Kevin Davis. Banking Concentration, Financial Stability and Public Policy /<https://www.rba.gov.au/publications/confs/2007/pdf/davis.pdf>
8. Nicola Cetorelli, Benjamin H. Mandel, and Lindsay Mollineaux. The Evolution of Banks and Financial Intermediation: Framing the Analysis/ <https://www.newyorkfed.org/medialibrary/media/research/epr/12v18n2/1207cet1.pdf>
9. Robert A. Weigand. Applied Equity Analysis and Portfolio Management: Tools for Analysis and Portfolio Management/336 pages 2014 19.34 MB



10. V. Kalomiris, Steven H. Haber. Fragile by Design: The Political Origins of Banking Crises and Deficit Credit (The Princeton Economic History of the Western World, 50)/Illustrated, February 23, 2014.
11. Nurxodjayeva, N. B. Bank kapitali yetarlilikiga qo'yilgan talarlar va uning yetarliligini ta'minlashda xatarli bank aktivlari ahamiyati / Н. Б. Нурходжаева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 4 (294). — С. 481-485. — URL: <https://moluch.ru/archive/294/66778/>.
12. <https://bankers.uz/news/1013>.
13. <https://bankers.uz/news/1025>.
14. <https://bankers.uz/news/1050>.
15. <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/843918/>
16. <https://cbu.uz/upload/iblock/3c9/vtss7yhz0xl9tdecypxhkz0468oj1nw/2496032.pdf>
17. <https://e-journal.uz/2020/10/23/> (Рахматов Т. Банкларнинг трансформация жараёнини фаоллаштиришда банк хизматлари масалалари)
18. <https://jfin-swufe.springeropen.com/articles/10.1186/s40854-021-00264-y>
19. <https://lex.uz/ru/docs/5292850>.
20. [https://mkbank.uz/upload/medialibrary/4a9/nihb8gqpg3n58fo2h2vxoqqewh3s6rdx/28\\_Emissiya.pdf](https://mkbank.uz/upload/medialibrary/4a9/nihb8gqpg3n58fo2h2vxoqqewh3s6rdx/28_Emissiya.pdf).
21. <https://mkbank.uz/uz/shareholders>.
22. <https://qishloqqurilishbank.uz/documents/t/moliyaviy-hisobotlar-mhx>
23. <https://sqb.uz/uz/for-investors>.
24. <https://www.bankofcanada.ca/wp-content/uploads/2021/09/swp2021-44.pdf>.
25. <https://www.ipotekabank.uz/uz/about/reports>.
26. <https://www.myuniversity.ru/%D0.html>.
27. [https://www.researchgate.net/publication/325060756\\_Managing\\_Change\\_in\\_Banking\\_Organizations\\_The\\_Case\\_of\\_a\\_UK\\_Commercial\\_Bank](https://www.researchgate.net/publication/325060756_Managing_Change_in_Banking_Organizations_The_Case_of_a_UK_Commercial_Bank)
28. <https://xb.uz/uz/page/aksiyadorlar-3>.
29. <https://xs.uz/uzkr/post/tizhorat-banklarining-samarali-investitsion-faoliyati-taraqqiyot-va-farovonlikning-muhim-omili>.

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 11-12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

